

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI
VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

IKROMJON HABIBJONOV

**ADABIYOT DARSLIKLARIDAGI
TUSHUNILISHI QIYIN
SO‘ZLAR LUG‘ATI**

TOSHKENT – 2014

UO‘K: 37.013.42

KBK 30.3

H-77

H-77 I. Habibjonov. Adabiyot darsliklaridagi tushunilishi qiyin so‘zlar lug‘ati. –T.: «Fan va texnologiya», 2014, 120 bet.

ISBN 978–9943–4264–9–8

Adabiyot darsliklaridagi tushunilishi qiyin so‘zlar lug‘ati birinchi marta tayyorlanmoqda. Unda so‘zlar o‘zbek lotin alifbosi tartibida berilgan. Lug‘atga so‘z to‘plash va tanlashda maktab, litsey va kollej adabiyot darsliklarida qo‘llanilgan hamda mumtoz adabiy asarlarda uchraydigan 3500 ga yaqin tushunilishi qiyin so‘zlar asos qilib olingan.

Lug‘at oliy ta’lim muassasalari talabalari, maktab, litsey va kollej o‘quvchilari hamda abituriyentlar uchun mo‘ljallangan.

UO‘K: 37.013.42

KBK 30.3

Mas’ul muharrir:

Rashid Shukurov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

Isroiljon Po‘latov, Barnoxon Abdurahmonova,

Durdonaxon Zohidova – filologiya fanlari nomzodlari, dotsentlar;

Hikmatxon Ahmedova – katta o‘qituvchi.

Qo‘qon davlat pedagogika instituti ilmiy Kengashining 2013 yil 29 noyabrdagi 3-sonli yig‘ilishi qaroriga asosan chop etildi.

ISBN 978–9943–4264–9–8

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2014.

SO‘ZBOSHI

Yosh avlodni ruhan sog‘lom va yuksak ma’naviyatli qilib kamol toptirish ularni madaniy merosimizdan bahramand ravishda tarbiyalashni taqozo etadi.

Shu niqtai nazardan, adabiy merosimiz namunalari bo‘lgan mumtoz asarlarni o‘quvchilarga imkon qadar chuqur va ilmiy asosda o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mumtoz adabiyotda Atoyi, Sakkokiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mashrab, Uvaysiy, Nodira va ko‘plab boshqa ijodkorlar qalam tebratganlar. Ular o‘zlaridan nodir asarlar qoldirganlar.

Buyuk bobokalonlarimiz yozgan har qanday asar kishini ruhan yuksalishga, ma’naviy kamolot sari yetaklaydi.

Bunday o‘lmas, durdona asarlar maktab, litsey, kollej o‘quvchilari uchun chiqarilgan adabiyot darsliklarida ko‘plab berilgan.

Mumtoz asarlarda eski o‘zbek adabiy tiliga mansub atamalar va arxaik so‘zlarning ko‘p ishlatilganligi sababli o‘quvchilarda bu asarlar tarkibidagi ayrim so‘zlarning izohini tushunmaslik holati yuzaga keladi. Birgina so‘zning lug‘aviy ma’nosini anglamaslik asarning mazmuni to‘laqonli ochilmasligiga olib keladi.

Ana shuni hisobga olgan holda, lug‘at maktab, litsey va kollej o‘quvchilari, o‘zbek filologiyasi talabalari hamda abiturientlar, O‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ularning asar tahlili jarayonida darsliklarning har joyida berilgan lug‘atlarni qidirib, qimmatli vaqtlarini yo‘qotmasliklari uchun harakat qilingan.

O‘ZBEK LOTIN ALIFBOSI

Aa	Hh	Nn	Tt	O‘o‘
Bb	Ii	Oo	Uu	G‘g‘
Dd	Jj	Pp	Vv	SHsh
Ee	Kk	Qq	Xx	Hch
Ff	Ll	Rr	Yy	NGng
Gg	Mm	Ss	Zz	

A a

ABHAR - bo'tako'z, nargis (gul turi)

ABIR - anbar, ipor, yoqimli hid

ABLAQ - ikki rangli, ola-bula; oq-qora

ABR - bulut

ABRI NAYSON - ko'klam buluti

ABRISHIM - ipak

ABROR - yaxshi kishilar, sofdil insonlar

ABTAR - kalta, qisqa, uzilgan; xunuk

ABYOT - baytlar

ADAM - yo'qlik

ADAN - Arabistondagi kichik mamlakat nomi

ADDOI - duo qiluvchi

ADL - 1. Adolat; 2. Odillik

A'DO - dushman

ADOQ - oyoq

ADUV - yov, dushman

AFGOR - jarohatlangan, majruh

AFLOK - falak, osmon so'zining ko'pligi (a - lar ko'plik)

AFLOTUN - Platon yunon faylasufi

AFRUZ - yorituvchi

AFSAR - podsholik toji, jig'a

AFSURDA - ruhsizlangan, so'ligan, so'lg'in, ilviragan,
tushkun, o'nggan

AFTODA - zaif, nochor, yiqilgan; xor

AFVOJ - to'dalar, guruhlar

AFZUN - ko'p, ortiq

AFG'ON - nola, fig'on

AFSHON - sochuvchi. Mumtoz she'riyatda u yoqimli hid
taratish, yanada go'zallashish ma'nolarini
anglatadi